

O'ZBEK VA ARAB TILIDA EGA

Abdusalomova Xurshidaxon Elmurodjon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Annotatsiya: O'zbek va arab tili ikki xil til oilasiga, ya'ni turkiy va somiy tillar oilasiga mansub bo'lsa ham, ayrim grammatik kategoriyalar va gap tuzilishiga ko'ra bir-biriga o'xshash tomonlarga ega. Ushbu maqolada o'zbek va arab tilidagi sintaksis nuqtayi nazaridan ega gap bo'lagining o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilingan. Har bir qiyoslov turli misollar orqali izohlanib, yakuniy xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: ega, foil, noib anil-foil, grammatik kategoriya, sintaksis, nahv, so'roq, ish-harakat.

Sintaksis grammatikaning so'zlarni so'z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikish usullarini o'rganuvchi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi, o'zaro ta'sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi tilshunoslik bo'limidir. Nahv "ilm al-e'rob" deb ham ataladi. Bu so'zlarning oxiri qanday bo'lishini bilishga yordam beradigan ilmdir. Nahv ilmi gap tuzilishi va e'rob (so'zlarning holati) qoidalarini o'rganadi. Nahv ilmining asosiy maqsadi jummalarni tuzish usullarini aniqlash, so'zlarning jumladagi joylashuvini va shu joylashuvdan hosil bo'lgan xususiyatlarini aniqlashdir.(2)

Demak, o'zbek tilidagi sintaksis bo'limi va arab tiliga xos bo'lgan nahv ilmi nomlanishi ikki xil bo'lsa ham, maqsad va predmetlari jihatidan bir xildir. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi ega va arab tilidagi foil va noibul-foil tushunchalarining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini qiyoslab tahlil qilamiz.

O'zbek tilidagi ega bilan arab tilidagi foil (فاعل) va noib anil-foil (نائب عن الفاعل) grammatik jihatdan bir-biriga o'xshash, ammo ularning ishlatilishi va ba'zi qoidalarida farqlar mavjud.

Avvalo, o'xshashliklarga to'xtalsak, ikkisi ham ish-harakatning bajaruvchisini ifodalaydi.

Ega gapning asosiy bo‘lagi bo‘lib, kim yoki nima harakatni bajarayotgani yoki gapda gap nima haqida ekanligini bildiradi. Ega, odatda, ot, otlashgan so‘z yoki olmosh bo‘ladi. Foil bu gapdagi asosiy bo‘lak bo‘lib, harakatni bajargan yoki unga xos bo‘lgan shaxs yoki narsa haqida ma’lumot beradi. Egalar odatda bosh kelishikda bo‘ladi va ko‘pincha ot yoki olmoshdan iborat bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, ikki atamaning qanday so‘zlar uchun ifodalanishi bir xil. Masalan, *talaba yozdi*. كُتِبَ الطالب. Ushbu ikki misolda *talaba* va الطالب (talaba) so‘zlari ega (foil), chunki ikkisida ham yozmoq fe’lini amalga oshirgan.

O‘xshashliklarining yana biri bu shaxs va sonda moslashuvdir. O‘zbek tilida ega va arab tilida esa foil odatda kesim bilan moslashib keladi. Masalan, *Muhammad keldi*, جاء محمد (*Muhammad keldi*). Ikki misolda gap ega va kesim o‘zaro shaxs va sonda moslashgan.

Har ikki tilda ega (o‘zbek tilida) va foil (arab tilida) gapning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Bir qancha o‘xshashliklar bilan birga o‘zi xos farqli jihatlari mavjud. (3)

Ish bajaruvchining mavqeyi va qoidalariga ko‘ra. O‘zbek tilida ega gapning bosh qismida yoki fe’lning oldida joylashadi. Fe’l har doim ma’lum gapda ishlatiladi. Masalan, *bola kitob o‘qiyapti*. Ega: *bola*. *Kitob yozildi*. Ushbu gapda kitob kim tomonidan yozilgani noma’lum bo‘lsa ham, ammo *kitob* ishni ko‘rsatmoqda. Shuning uchun u ega vazifasini bajaradi. Arab tilida esa foil har doim ma’lum (فعال معلوم) gaplarda bo‘ladi va fe’ldan keyin keladi. Agar ish bajaruvchi noma’lum bo‘lsa, majhul fe’l ishlatiladi va o‘rnini noib anil-foil egallaydi.(1) Masalan, يَكْتُبُ الطفل الكتاب (*bola kitob o‘qiyapdi*), ko‘rishimiz mumkinki, gapning foili fe’ldan keyin kelgan. كُتِبَ الكتاب (*kitob yozildi*) ushbu jumlada *kitob* so‘zi foil emas, aksincha, noib anil-foil vazifasida keladi.

Xulosa qilib aytish joizki, arab va o‘zbek tillarida ega gapning asosiy maqsadi, predikat (fe’l) va subyekt (egasi) o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlashdir. Har ikkala tilda ham ega gaplar fe’l bilan bog‘liq bo‘lib, egasi va vazifasi haqida ma’lumot beradi. Misol uchun, arab tilida كُتِبَ (*yoza*) fe’li, o‘zbek tilida esa *yoza* fe’li bir xil ma’noni bildiradi. Har

ikkala tilda ham egasi (subyekt) va fe'l (predikat) o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Grammatik tuzilishiga kelsak, arab tilida ega gap tuzilishi qat'iy va qoidalarga asoslanadi. Arab tilida fe'lning shakli (masalan, o'tgan zamon, hozirgi zamon) va egasining jinsiga qarab, gap tarkibi o'zgaradi. Misol uchun, (u yozdi) va (u yozdi, ayol) iboralari mavjud. Arab tilida jinsga qarab fe'lning o'zgarishi aniq va majburiydir. O'zbek tilida esa fe'lning o'zgarishi jinsga qarab amalga oshmaydi. *Yozdi* fe'li, ayol yoki erkak uchun o'zgarishdan ishlatiladi. So'z tartibiga ko'ra arab tilida ko'pincha fe'l (predikat)dan boshlanadi, so'ngra egasi (subyekt) keladi. Misol uchun, كتب الولد (*bola yozdi*). O'zbek tilida esa, odatda, so'z tartibi subyekt (ega)dan boshlanadi, so'ngra fe'l keladi: *Bola yozdi*.

Arab va o'zbek tillarida ega gaplar o'xshash maqsadga xizmat qiladi, ya'ni fe'l va egasining o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Ammo arab tilida grammatika va so'z tartibi ko'proq qat'iy va jinsga qarab o'zgaradi, o'zbek tilida esa so'z tartibi va fe'lning o'zgarishi ko'proq erkinlikka ega. Bu farqlar har ikki tilning grammatik tuzilishini va ifoda qilish usulini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arab tili grammatikasi 1-qism, Ne'matillo Ibrohimov, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent. 1997-yil.
2. O'zbekiston musulmonlar idorasi "Hadichai Kubro" islom o'rtamahsus ayol-qizlar bilim yurti Toshkent. 2008.
3. الدروس النحوية, حفني ناصف ومحمد دياب ومصطف طوموم وحمد , الإسكندرية 2007 "دار العقيدة" صالح ,
4. Jo'Rayeva, M. (2025). Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar:(arab tili misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
5. M Fatilloev, S Sh . Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher

Navai. - The american journal of social science..., 2020. B. 493-498.

6. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.

7. Mirzayevich, I. G. (2016). Transterminologization in The Uzbek Language. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(5), 8-16.

8. Komilovich, R. A. (2026). Nosir Al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarida so ‘z turkumlari tasnifi va ulurning lingvistik mezonlari. *Innovation and development*, 4(5), 339-343.